

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**E.Bozorov, M.Axmadjonov**

Tibbiyot elektronikasi fanining samaradorligini oshirishida “hamkorlikda” o’qitish texnologiyasining o’rni ..... 233

**N.Abdukarimova, Sh.Shuxratov**

Texnik mexanika fanini texnologik ta’lim yo’nalishida o’qitish uslubiyoti ..... 238

**N.Raxmatova, Sh.Shuxratov**

Texnologiya ta’limida innovatsion yondoshuv asosida o’quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish ..... 242

**B.Mamatojiyeva, Sh.Shuxratov**

Yog’och materiallaridan murakkab bo’lмаган detallar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi ..... 248

**Sh.Ashirov, D.Mirzayev**

Akademik litseylarda fizika fanini o’qitishda integrativ darslar mazmunini takomillashtirish ..... 253

KIMYO

**D.Abbasova, A.Ibragimov, O.Nazarov**

Ephedra Equisetina bunge o’simligidan ajratib olingan efedrin alkaloidi ..... 257

**M.Ismoilov**

Qatronlar va neft kislotalari uchun adsorbentlar ..... 262

**N.Dexkanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,**

Nax seolit vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi ..... 267

**H.Qurbanov, M.Rustamov, D.Gafurova, M.Mirzoxidova**

Poliakrilonitril asosida yong’inga chidamli polimer mato olish ..... 274

**I.Asqarov, M.Akbarova, Z.Smanova**

Qon bosimining oshishi kasalligida ishlataladigan sintetik dorilarning inson organizmiga ta’siri ..... 279

**I.Askarov, N.Tulakov, Z.Abduraimov, N.Islamova**

1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi ..... 283

**H.Rahimova, A.Ibragimov**

*Phlomoides Canescens* o’simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish ..... 289

**N.Qutlimuatov**

Mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan anionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi ..... 293

**M.Jo’rayev, S.Xushvaqtov**

Polivinilxlorid plastikat asosida olingan sorbentning fizik-kimyoviy xossalari ..... 299

**I.Askarov, G’.Madrahimov, M.Xojimatov**

O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o’rganish ..... 304

**S.Mukhammedov, I.Askarov, Kh.Isakov, M.Mamarakhmonov**

Furfurolidenkarbamidning elektron tuzilishi va kvant-kimyoviy xisobi ..... 308

**O.Tursunmuratov, D.Bekchanov**

Vermikulit asosida olingan yangi ionitga  $Cu^{2+}$  ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi ..... 311

**M.Ismoilov**

Karaulbozor neft fraktsiyalarini tahlili ..... 315

**M.Axmadaliyev, N.Yakubova**

Ishqoriy muhitda furfurolning kondensatsiyalanishi ..... 322

**B.Nu’monov**

Fosforkislotali-gipsli bo’tqasini koversiyalash asosida kompleks o’g’itlar olish ..... 328

**Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov**

Tabiiy polimerlar asosida biosorbentlar olinishi va qo’llanilishi ..... 335

**G’.Xayrullayev, Sh.Kadirova, B.Torambetov, S.Botirova, Sh.Mavlonova**

3,3'-disulfanidilbis (1h-1,2,4-triazol-5-amin) sintezi ..... 341

GEOGRAFIYA

**Y.Axmadaliyev**

Mahalliy aholining shaharsozlik an’analardida landshaft omilining o’rni ..... 346

**K.Boymirzayev, H.Naimov**

Farg’ona botig’i yoyilma landshaftlarining geografik o’rganilishi va tadqiq etilishi ..... 352

## POLIVINILXLORID PLASTIKAT ASOSIDA OLINGAN SORBENTNING FIZIK-KIMYOVİY XOS SALARI

### ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СОРБЕНТА НА ОСНОВЕ ПОЛИВИНИЛХЛОРИДА ПЛАСТИКА

### PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF SORBENT BASED ON POLYVINYLCHLORIDE PLASTIC

**<sup>1</sup>Jo'rayev Murod Maxmarajab o'g'li, <sup>2</sup>Xushvaqtov Suyun Yusup o'g'li**

**<sup>1</sup>Jo'rayev Murod Maxmarajab o'g'li**

– Chirchiq davlat pedagogika instituti, Ilmiy va metodologik kimyo kafedrasi mudiri, k.f.f.d.(PhD).

**<sup>2</sup>Xushvaqtov Suyun Yusup o'g'li**

– Chirchiq davlat pedagogika instituti, Ilmiy va metodologik kimyo kafedrasi dots.v.b., k.f.f.d.(PhD).

#### **Annotatsiya**

Tadqiqot maqsadi polivinilxlorid asosida olingen yangi sorbentning fizik-kimyoviy xossalariini o'rganishdan iborat. Tatdqiqotlar termogravimetrik analiz, differentsial termik analiz, kompleksometriya kabi zamonaviy usullar yordamida eksperimental natijalar olinganligi bilan asoslangan. Sorbent va sorbat o'rtasidagi ion muvozanati Langmuir va Freundlich izoterma modellari, sorbsiya termodinamikasi haqidagi zamonaviy nazariyalarda ishlatiladigan tenglamalarni qo'llash orqali xulosalar chiqarilgan. PVX asosida olingen ionitning fizik kimyoviy xossasi o'rganish natijasida yuqori termik barqarorlikka egaligi va metall ionlarining yutilishi yuqori darajada ekanligi aniqlangan.

#### **Аннотация**

Целью исследования явилось изучение физико-химических свойств нового сорбента на основе поливинилхлорида. Исследование основано на том, что экспериментальные результаты были получены с использованием современных методов, таких как термоавгравиметрический анализ, дифференциальный термический анализ, комплексометрия. Ионное равновесие между сорбентом и сорбатом выводится из моделей изотерм Ленгмюра и Фрейндлиха с использованием уравнений, используемых в современных теориях термодинамики сорбции. Изучение физико-химических свойств ионообменников на основе ПВХ показало, что они обладают высокой термической стабильностью и высоким поглощением ионов металлов.

#### **Abstract**

The purpose of the study is to study the physicochemical properties of a new polyvinyl chloride-based sorbent. The research is based on the fact that experimental results were obtained using modern methods such as thermogravimetric analysis, differential thermal analysis, complexonometry. The ionic equilibrium between the sorbent and the sorbate is deduced from the Langmuir and Freundlich isotherm models, using the equations used in modern theories of sorption thermodynamics. The study of the physicochemical properties of PVC-based ion exchangers revealed that they have high thermal stability and high absorption of metal ions.

**Kalit so'zlar:** polivinilxlorid, kationit, ion, sorbsiya, izoterma.

**Ключевые слова:** поливинилхлорид, катионит, ион, сорбция, изотерма.

**Key words:** polyvinyl chloride, cationite, ion, sorption, isotherm.

#### **KIRISH**

Sanoat korxonalarining turli jarayonlarida ko'p miqdorda tabiiy oqova suv ishlatiladi va ishlatilgandan so'ng chiqindi oqova suvlar hosil bo'ladi. Tabiiy oqova suvlar sanoat korxonalarida ishlatishdan oldin tayyorlanadi, ma'lum bosqichda turli ionlar hisobiga hosil bo'lgan qattiqligi yumshatiladi [1]. Suvdag'i qattiqlikni keltirib chiqaruvchi  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlari sog'liq uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'dirmasa ham, ular suv moslamalarida cho'kmalarining paydo bo'lishi, sovun va yuvish vositalarining yuvish samaradorligini kamaytirish kabi istalmagan ta'sirga ega [2].  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlarini saqlagan ichimlik suvini uzoq vaqt iste'mol qilish inson organizmida toshning paydo bo'lishini oshiradi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Sanoatda korxonalarining isitish qozonlarida kalsiy va magniy tuzlari cho'kmalar hosil qiladi, issiqlik o'tkazuvchanligiga to'sqinlik qiladi, hatto isitish qozonlarini yorilishiga olib keladi. Shu sababli, suvdan ortiqcha  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ni olib tashlashning yangi usulini ishlab chiqish muhim qo'llash istiqbollariga ega [3]. Hozirgi vaqtida suvdan  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ni olib tashlash usullari asosan

cho'ktirish, qaynatish, oxak-soda kulidan foydalanish, ion almashinuv, elektrodializ va adsorbsion usullaridan foydalaniladi. Bunday tozalash usullari orasida so'nggi yillarda adsorbsion usul o'zining oddiy ishlashi, qayta ishlanishi va arzonligi kabi afzallikkari katta e'tibor tortadi [4-5].


Hozirgi vaqtida ishlatiladigan kationitlardan sulfoguruh ( $-SO_3H$ ) tutgan polimer matritsa sifatda stirol va divinilbenzol asosdagi sopolimerlar keng miqyoda ishlatiladi [6]. Odatda, bunday kuchli kislotali ionalmashinuvchilar mavjud bo'lib, natriyli formada ( $-RSO_3Na$ ) qo'llaniladi, chunki  $Na^+$  ionlari suvdagi mavjud  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlari bilan oson almashinadi [7]. Suvni yumshatish uchun ishlatiladigan KU-2, Amberlit-IR, Lewatit-S, Purrolit-C kabi kation almashinuvchilarning fizik-kimyoviy xossalari va ishlash prinsiplari, eritmalardagi ionlar sorbsiyasining muvozanat jarayoni, muvozanat jarayoni termodinamikasi va kinetikasi bo'yicha tadqiqot ishlari keng qamrovda olib borilgan. Bunda qatronlardan bir nechtasining fizik-kimyoviy xossalari va ishlash bo'yicha, eritmalarda muvozanat moslamalari, muvozanatli termodinamika va kinetikasi ishlab chiqilgan bir qancha eksperimental tadqiqotlar olib borilgan. Yillar davomida turli muvozanatlarni modellashda (Freundlix, Lengmyur Dubinin Radushkevich, Temkin va boshqalar) asosiy yondoshuvni kinetik va termodinamik parametrлarning o'zgarishiga qaratishgan [8].

Ushbu ishda plastikat polivinilxloridni oltingururt bilan modifikatsiyalash orqali olingen polimerni oksidlovchilar bilan oksidlab olingen sulfokationitning termik barqarorligi hamda suvdagi  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlari tutgan sun'iy eritmalardan sorbsiya jarayonlari o'rganildi.

Polimerlarning haroratbardoshliligi termik va termoooksidlanish destruktsiyasi boshlanadigan, quyi molekulyar birikmalar ajralib chiqadigan harorat chegaralarida aniqlanadi. Polimerlarning haroratbardoshliligini o'rganishda harorat ta'sirida massa yo'qotishiga asoslangan termogravimetrik (TG) analizidan keng foydalaniladi.

Boshlang'ich mahsulot PVXga oltingugurt modifikatsiyalangan mahsulotining termogravimetrik (TG) va differentsial termogravimetrik analiz (DTG) egrilari 1-rasmda keltirilgan.

Termik analiz bo'yicha quyida keltirilgan 1-rasmga ko'ra PVX tarkibi 518 K (245°C) gacha o'zgarmaydi (termik barqaror), 519 K (246°C) dan keyin tezlik bilan parchalanishni boshlaydi (destruktsiya tezligi 7% daqqa). 636 K (363°C) da namunaning qolgan massasi 34,8% ni tashkil etadi. Destruktsiya energiyasi (ekzotermik jarayon) 113,2 Dj/g.



**1-rasm. PVX asosida olingen sulfokationitni termik analizi.**

TG - termogravimetrik egrisi; DSC - differentsial skanerlovchi kalorometrik analiz egrisi.

Olingen natijalar namunaning tarkibida kristall strukturasi borligini tasvirlaydi, 296-643 K (23-370°C) harorat intervalida massaning yo'qotilishi ikkita bosqichda sodir bo'ladi, birinchisi 403-433 K (130-160°C) intervalda bo'lib, ushu intervalda -6,07% massaning yo'qotilishi bilan namunaning tarkibidagi kristall tizimlarning suyuqlanishi sodir bo'ladi. Keyingi bosqichlarda harorat ortishi bilan massa o'zgarishi kichik darajada kamayib borib 527 K (254°C) da keskin kamayishi kuzatildi. Bu esa, dastlabki PVXga nisbatan termik barqarorligi 100 ortganligini ko'rsatdi. DSC ning egrи chiziqlarida -28,13 Dj/g energiyaning yutilishi bilan endotermik cho'qqi kuzatiladi -  $T_{mak}=427$  K (154,8°C). Sanoat miqyosida keng qo'llaniladigan KU-2-8 kationitida esa termik barqarorligi 373-

## KIMYO

403 K (100-130°C)da qo'llash mumkinligi adabiyotlarda keltirilgan. Bu esa, sanoatda qo'llaniladigan kationitlardan termik barqarorligi bo'yicha raqobatlasha olishini ko'rsatadi. PVX asosidagi sulfokationit 403-528 K (130-255°C) haroratlarda deyarli massasi kamaymasdan o'zining tarkibiy tuzilishini saqlab qolishi kuzatildi.

Olingan sorbentning sun'iy eritmaldardan sorbsion xossalari o'rganildi. Buning uchun sulfokationitga sun'iy eritmaldardan  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining sorbsiyasi 12 soatgacha bo'lgan vaqt oraliqlarida, konsentratsiyalari 0,025; 0,05; 0,075; 0,1 mol/l dan bo'lgan  $\text{CaCl}_2$  va  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$  eritmalar 293, 303 va 313 K haroratlarda o'rganildi. Qo'llanilgan sorbent  $\text{NaOH}$  bo'yicha statik almashinuv sig'imi 3,85 mg-ekv/g bo'lgan quruq holdagisi 0,3 g dan analitik tarozida o'lchab olinib, hajmi 250 ml bo'lgan konussimon kolbalarga solindi va 100 ml dan eritmalar quyildi. Dastlabki va sorbtsiyadan keyingi eritma konsentratsiyalari EDTA (kompleksanometrik) usulida aniqlandi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Sorbsiya jarayonidan oldingi va keyingi eritmadiagi metall ionlarining kontsentratsiyasini o'zgarishi quyidagi formula orqali hisoblab topildi.

$$q_e = \frac{(C_0 - C_e) \times V}{m}$$

Muvozanat jarayonlarini tahlil qilish uchun adsorbsiya izotermalari eng muhim vosita hisoblanadi. Suyuq va qattiq sistemalarda muvozanat jarayonlarini ifodalash uchun eng keng qo'llanilgan va qulay bo'lganlari Lengmyur va Freundlix modellaridir [9]. Izoterma modellari formulalari quyidagi jadvalda keltirilgan


**1-jadval**

Izoterma modeli	Tenglama	Chiziqli tenglama	Bog'liqligi
Lengmyur	$q_e = q_{\max} \frac{K_L C_e}{1 + K_L C_e}$	$\frac{C_e}{q_e} = \frac{1}{q_{\max} K_L} + \frac{1}{q_{\max}} \cdot C_e$	$C_e/q_e$ va $C_e$
Freundlix	$q_e = K_F C_e^{\frac{1}{n}}$	$\log q_e = \log K_F + \left( \frac{1}{n} \right) \log C_e$	$\log q_e$ va $\log C_e$

**Lengmyur izoterma nazariyası** adsorbent sirtida adsorbatning bog'lanishi faqat aktiv markazlarda sodir bo'ladi va bu bog'lanish energiyasi bir xil bo'lib, adsorbat molekulalari bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan monomolekulyar qatlamlar hosil qilib adsorbsiyalanishini ifodalaydi.

**Freundlix izoterma modeli** geterogen sistemalarda boradigan adsorbsiya jarayonini nazariy baholash uchun keng qo'llaniladi.

Izoterma konstantalarini hisoblab topish uchun quyidagi grafiklar tuzildi



**2-rasm.  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining PVX asosidagi kationitga adsorbsiyasining (a) Lengmyur, (b) Freundlix izotermalarida ifodalanishi.**

Yuqoridagi 2-(a) rasmda keltirilgan grafik asosida hisoblangan Lengmyur va Freundlix konstantalari 2-jadvalda keltirilgan. Unga ko'ra maksimal monoqatlamlı sorbsiya miqdori ( $q_{\max}$ )  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlar uchun mos ravishda 50.3 mg/g va 36.5 mg/g,  $K_L$  qiymati 0.00162 va 0.00116,

shuningdek ajratish omili ( $R_L$ ) 0.134 va 0.264 ekanligi sorbsiya jarayoni qulay bo'lganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi 2-(b) rasmda keltirilgan grafik asosida hisoblangan Freundlix konstantalari  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari sorbsiyasida  $K_F$  qiymatilari mos ravishda 8.15 va 1.14 tengligi hamda sorbsiya intensivligi ( $n$ ) mos ravishda 4.56 va 2.43 ga tengligi sorbsiya jarayoni qulay bo'lganini ko'rsatadi.


Sorbsiya jarayoni termodinamikasi o'rganildi. Buning uchun turli haroratlarda muvozanat konstantasini aniqlash orqali termodinamik parametrlarning o'zgarishi hisoblab topildi. Gibbs energiyasini hisoblash quyidagi formulalardan foydalanish mumkin.

$$\Delta G = -RT \ln K_L$$

Bu tenglama orqali  $\Delta H$  va  $\Delta S$  qiymatlari topildi.

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$$

Buning uchun  $\ln K_L$  va  $1/T$  bog'liqlik grafigi tuzildi.



**3-rasm. Termodinamikani o'rganish uchun  $\ln K$  ning  $1/T$  ga bog'liqlik grafigi.**

Yuqoridagi 3-rasm asosida hisoblangan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan. Unga ko'ra PVX asosida olingan ionitga  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari sorbsiyasini termodinamik jihatlardan tavsiflash mumkin.

**2-jadval**

Izotermal parametrlari				Termodinamik parametr					
Lengmyur		Freundlix		$\Delta H$ kJ/mol	$\Delta S$ J/mol·K	$-\Delta G$ kJ/mol	293 K	293 K	293 K
Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>						
K <sub>L</sub>	0,0014	0,0012	K <sub>F</sub>	4,066	0,9932	Ca <sup>2+</sup>			
q <sub>max</sub>	50,25	36,9		0,2856	0,4342	30,07	440	98,9	103,3
R <sub>L</sub>	0,158	0,275		R <sup>2</sup>	0,9654	0,9713	Mg <sup>2+</sup>	18,66	52,9
R <sup>2</sup>	0,994	0,991					136,5	141,8	147,1

Yuqoridagi 2-jadvalda PVX asosidagi kationitga  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari sorbsiya izotermasi Lengmyur modeliga bo'yunganligini  $R^2$  qiymatining mos ravishda 0.994 va 0.991 ga tengligi isbotlaydi. Lengmyur izotermasi bo'yicha maksimal monoqatlamli sorbsiya miqdori  $\text{Ca}^{2+}$  ionlarida 50,25 mg/g,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarida 36,9 mg/g ni tashkil qilishi aniqlandi. Lengmyur izotermasidagi ajratish koefisienti hamda Freundlix izoterna modelidagi sorbsiya intevsivligi metall ionlarining PVX asosidagi kationitga adsorbsiyalanishini ifodalaydi.

Sun'iy eritmalarda PVX asosidagi sulfokationitga  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari sorbsiyasida termodinamik parametrlarlardan entalpiya qiymati ortishi kuzatildi bu esa ionlamashinish jarayonida endotermik reaksiyaligidan dalolat beradi. Ya'ni harorat oshishi bilan sorbsiya miqdori ortib bordi. Entropiya qiymatini ortishi kationit funksional guruhlaridagi  $\text{Na}^+$  ionlarining  $\text{Me}^{2+}$  ionlariga almashinish natijasida tartibsizlik oshganligini taxmin qilish mumkin. Erkin energiyaning manfiy qiymati harorat ortishi bilan ortib borishi aniqlandi. Bu esa ion almashinish reaksiyasini o'z-zicha borganligidan dalolat beradi.

**XULOSA.** Ushbu ishda mahalliy xomashyolar PVX va oltingugurt yordamida olingan sulfokationitning termik barqarorligi o'rganilgan. Bunga ko'ra 130°C haroratgacha barqororligi

**KIMYO**

aniqlangan bu jihatdan sanoatda ishlataladigan kationitlar bilan termik barqarorligi bo'yicha raqobatlasha olishini ko'rsatadi. Olingan kationit yordamida suvning qattiqligiga sabab bo'luvchi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari sorbsiyasiyasi izoterra modellarda va sorbsiya termodinamikasini o'rganish natijasida ionalmashinish orqali yuqori darajada sorbsiyalanishi isbotlandi. Bu esa PVX asosidagi sulfokationitni termik ta'sirli muhitlarda ham suvdagi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarini tozalashga taklif qilish imkonini beradi.

**ADABIYOTLAR**

1. Juraev M., Khushvaktov S., Botirov S., Bekchanov D., Mukhamediev M. International Journal of Advanced Science and Technology. Kinetics of Sorption of Ca (II) And Mg (II) Ions from Solutions to a New Sulphocathionite. **29**, (7) 3395-3401 (2020).
2. Z. Yu et al. Journal of Hazardous Materials. Removal of Ca(II) and Mg(II) from potassium chromate solution on Amberlite IRC 748 synthetic resin by ion exchange. **167**, 406–412 (2009) doi10.1016/j.jhazmat.2008.12.140.
3. D. Mohan, K.P. Singh. Water Res. Single and multi-component adsorption of cadmium and zinc using activated carbon derivate from bagasse-an agricultural waste. **36**, 2304-2318 (2002).
4. M.N. Sepehr, et al. Applied Surface Science, Elsevier. Removal of hardnessagents,calcium and magnesium, by natural andalkaline modified pumice stonesinsingleand binary systems. **274**, 295-305 (2013) 10.1016/j.apsusc.2013.03.042. hal-00915133.
5. B. Bandrabur, L. Lazar, R.E. Tataru-Färmuş, G. Gutt. Food and Environment Safety - Journal of Faculty of Food Engineering. Cationic exchange capacity of Pure PC200FD resin in food industry water softening process. **11**, (2) 97-102 (2012).
6. Gryaznov, P.I., Yakubova, S.G., Tazeeva E.G., Milordov, D.V., Yakubov M.R., 2018, Thermal stability and sorption properties of asphaltene sulfocathionites, Petroleum Science and echnology, 36: (22) 1837-1842. doi: 10.1080/10916466.2018.1490763.
7. O. Karnitz et al. Carbohydrate Polymers. Gil Removal of Ca(II) and Mg(II) from aqueous single metal solutions by mercerized cellulose and mercerized sugarcane bagasse grafted with EDTA dianhydride (EDTAD). **79**, 184–191 (2010).
8. Ozdemir, C.S., 2019, Equilibrium, kinetic, diffusion and thermodynamic applications for dye adsorption with pine cone, *Separation Science and Technology*, 54: 3046-3054. doi: 10.1080/01496395.2019.1565769N.B.